

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DUDUQLANISHNI BARTARAF ETISH

Qung'irova Gulmira Romazon qizi
Samarqand davlat Universitetining
Kattaqo'rg'on filiali
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
2108-guruh talabasi 2-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanish sabablari, ularni bartaraf etish usullari, to'g'ri nutqni shakllantirish, ota – onalar bilan birgalikda ishlash, nutqni rivojlantirish yo'llari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Intellektual, kommunikativ, logonevroz, logofobiya, logoped, nevropatolog, psixonevrolog, stress, reloksatsiya.

Hozirgi kunda yoshlar ta'lim tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Shu jumladan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi, ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etilishi bo'yicha ko'pgina qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash, bugungi kunda ta'lim tizimining eng yuqori bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodni tarbiyalash masalasi ko'ndalang turadi. Ularning tarbiyasidagi aynan axloqiy xatti-harakatlarini psixologik jihatdan shakllantirish bugunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga ta'limda hamma tengligi, nutqiy, jismoniy, aqliy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar ham boshqa bolalar singari ta'lim olishi belgilab qo'yilgan. Duduqlanish — bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at-ohangining buzilishidir

Duduqlanish 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida ko'proq uchraydi. Duduqlanish – nutq buzilishlarining murakkab va ko'p uchraydigan turlaridan biridir. Bu nutq kamchiligida nutq a'zolari muskullarining tortishishi natijasida nutqning sur'at va ohangi buziladi, kommunikativ aloqa vositasi izdan chiqadi. Nutq a'zolari muskullarining ravon ishlay olmasligi, paylarni, muskul tolalarining tortishib qolishi

duduqlanishga sabab bo'ladi. Xorijiy va mamlakatimiz olimlarning ta'kidlashicha, dunyo bolalarining 2 % ida tutilib gapirish nuqsoni kuzatiladi.

Buyuk rus psixiatri I.A.Sikorskiy duduqlanishni—bolalar kasalligi deb atagan edi, chunki bu kamchilik 2 yosh bilan 5 yosh orasidagi bolalarda nisbatan ko'proq uchraydi. Bu davrda bolada nutq jarayoni juda shiddat bilan shakllanadi. Bu davrda bola tilning grammatik tuzilishini kattalarga taqlid etish yo'li bilan asta-sekin o'zlashtirib boradi, so'zlari ma'lum tartibda joylashgan gaplarni o'rganadi, o'z fikrlarini atrofdagilarga ma'noli nutq orqali ifodalay boshlaydi. Bolaning o'zlashtirish qobiliyati bu davrda nihoyatda kuchli bo'ladi, mas'uliyat, o'z-o'ziga talabchanlik ortib boradi. Biroq, ba'zi bolalarning gapirish sur'ati, maromi, ravonligi buziladi. Ular tutilib, so'zlarni oxirigacha talaffuz etmay, shoshib-pishib, tovush, bo'g'in, so'zlarni qayta-qayta takrorlab yoki aksincha to'xtab qolib, so'ngra zo'r kuch bilan, qiynalib, talaffuz etadilar – tutilib gapirish, duduqlanish deb shuni aytiladi. Shu bilan birga, bola xulqi atvorida, umumiy holatida ham ma'lum o'zgarishlar kuzatiladi. Arzimagan narsadan xafa bo'lish, hayajonlanish, injiqlik, gapirishdan qo'rqish alomatlari paydo bo'ladi. Bunday ruhiy hodisalar tutilib gapirishni kuchaytiradi, ba'zi bolalarning kam gap bo'lib qolishiga sabab bo'ladiki, buni nevrozga o'xshatishadi. Shu munosabat bilan shifokorlar tutilib gapirish, duduqlanishni—logonevroz, ya'ni nutq nevrozi degan termin bilan yuritadilar. Hozirgi davrda duduqlanish belgilari bir biriga bog'liq bo'lgan 2 ta guruhga ya'ni fiziologik va psixik guruhga ajratiladi. Fiziologik belgilarga: nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarning tortishishi, markaziy nerv sistema va jismoniy salomatlikning bo'shligi, zaifligi, umumiy gavda va nutq harakatlarining buzilishi kiradi. Psixik belgilarga: nutqda tutilish, his xayajon buzilishi, logofobiyalar, hayajonlanish, vahima, alamzadalik, umumiy zo'riqish, uyquda cho'chib ketish, yuzaki uyqu yuz beradi. Ko'pchilik ota-onalar tutilib gapirishning asosiy sababi bolaning qo'rqishi yoki naslida shunday kamchilik borligi deb hisoblaydilar. To'g'ri, qo'rqanidan, qattiq cho'chiganidan so'ng ayrim bolalar tutilib gapiradigan, duduqlanadigan bo'lib qoladi. Biroq bolalar hayotda favqulotdagi voqealardan tez-tez cho'chib turadi, ammo bundan faqat ba'zi birlari tutilib gapiradi. Chunki bunday bolalarda tutilib gapirishga oldindan moyillik borligi, ya'ni ular nerv sistemasining sustligi, asabiylashganligi shunga zamin yaratadi. Ota-onalarningalkogol ichimliklarini ko'piste'mol qilishi, bolani tez-tez jazolab turishi, bolaning og'iriyuqumli kasalliklar bilan og'rishi, rejimga rioya qilmasligi va boshqalar nerv sistemasini faoliyatining buzilishiga olib keladi. Nutqning kechikib rivojlanishi undagi qo'pol nuqsonlar, bolaga haddan tashqari ko'p bilim berish, yoshiga mos kelmaydigan asarlarni yod oldirish, barvaqt o'qishga yuborish ham nerv sistemasini susaytiradi va tutilib gapirish nuqsoni uchun moyillik yaratadi. Bolaning tabiatan taqlidchan bo'lishi hammaga ma'lum. Tutilib gapirish taqlidchanlik natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Bola tutilib gapiruvchi onasi yoki opasiga taqlid etib, zi ham tutilib gapira

boshlaydi. Atrofdagilar esa, shunga qarab boladagi tutilib gapirish nasldan deb o'ylashi mumkin. Ba'zi olimlar ham tutilib gapirish nasldan-naslga o'tadigan nuqson deb hisoblaydilar. Bolaga o'z vaqtida yordam berish uchun duduqlanishning eng asosiy alomatlarini ota-onalar vaqtida ko'ra bilishlari lozim. Ular: Bola birdan gapirmay jim bo'lib qoladi. Bu sukunat ikki soatdan bir kungacha cho'zilib ketishi mumkin bo'lib, undan keyin bola duduqlanib gapirishni boshlaydi. Agar ayni shu paytda mutaxassisga uchrashsangiz bolaga tez yordam berish mumkin bo'ladi; Ayrim so'zlar oldida kerakmas tovushlarni ishlatadi ("a" va "i" tovushlari); Birinchi bo'g'inlarni yoki butun so'zlarni gap oldidan qaytaradi; So'z yoki gapni o'rtasida majburan to'xtab qoladi; Gap boshlashdan oldin qiyinchilik sezadi. Duduqlanish paydo bo'lishining sababi, markaziy asab tizimining kuchsizlanib ketganligidir. Duduqlanish paydo bo'lishiga turli sabablar turtki bo'lishi mumkin. Kuchli infeksiya kasalligi, qattiq cho'chib ketishi yoki doimiy ravishdagi bolaga yomon va qo'pol muomaladan kelib chiqadi. Yashash sharoitidagi yomon tomonga o'zgarishlar ham duduqlanishga olib kelishi mumkin. Ayrim bolalarda esa duduqlanish ota-ona tomonidan doimiy ravishda bolaga qo'yilgan o'qish, yodlash, qaytarish, o'rganish kabi talablarning ko'pligidan ham kelib chiqadi. Kichik toylarga aqliy yuklamalarni ko'paytirmaslik, uzundan uzun she'rlar yod oldirmaslik, qiyin so'z va bo'g'inlarni talaffuz qilishga majburlamaslik kerak. Bolalarni hatto xorij tillarini o'rganishga majburlash ham nutqning buzilishiga olib keladi. Kech gapirgan bolalarda ham uch yoshda birdan ko'p gapirishni boshlab yuborsalar duduqlanish holatlari uchrab turadi. Bu sabablarni bilish ota-onaga o'z bolalariga duduqlanish alomatlarini vaqtida bartaraf etishga yordam beradi. Bolani o'z vaqtida mutaxassislarga ko'rsata olishda qo'l keladi. Duduqlanish asab tizimiga bog'liq bo'lgan muammo bo'lgani uchun: Duduqlanaydigan bolaga alohida e'tibor, tinch oilaviy sharoit va oilada to'g'ri qo'yilgan nutqni ta'minlash lozim. Bolalarga juda ko'p kitob o'qish yaxshi emas. Ayniqsa o'z yoshiga mos bo'lmagan kitoblarni o'qish mumkin emas. Televizorni ko'p ko'rishni ruxsat bermang, ayniqsa yoshiga mos kelmagan dasturlarni umuman ko'rsatmaslikka harakat qiling. Bolani haddan tashqari erkalab yuborish kerak emas, aks holda bolaga arzimagan "YO'Q" so'zingiz ham asab tizimiga qattiq zarar yetkazishi mumkin. Bolaga qo'yilgan talablar uning yoshiga mos bo'lishi lozim. Bolani qo'rqitish mumkin emas, ayniqsa bir o'zini qorong'i xonaga qoldirib jazolash bola asab tizimiga yomon ta'sir qiladi. Duduqlanayotgan bolalarni yaxshi ravon gapiradigan bolalar bilan muloqotga kiritish lozim. Ashula aytish o'yinlarini o'ynash lozim. Duduqlanayotgan bolalarni hamma oldida javobga chaqirish noto'g'ri. Bunday bolalarda o'ziga ishonch hissini tug'dirish lozim. Duduqlanadigan bolalarni musiqa, qo'shiq kuylash va raqsga tushish to'garaklariga olib borish lozim. Duduqlanadigan bola doim sizning ya'ni ota-onaning mehrini his etib yurishi lozim. Duduqlanuvchi bolalar gapirganda havo yetmay qoladi. Ko'z oldingizga o'pka tasvirini keltiring. Tepa qismi kichikroq, pastisi esa keng va kattaroq bo'ladi.

Duduqlanuvchi bolalar ana shu o'pkaning faqat tepasidan nafas oladi. Bu nafas yuzaki bo'lib, olinganda yelkalar ham ko'tariladi. Duduqlanuvchi bolalar gapirayotganda nafasini yetkazolmay qoladi. Nafasni tez olib, sekin chiqarish me'yor bo'lsa, ular tez olib, tez chiqaradi. Ota-onalar farzandida duduqlanishni sezgan zahoti logoped, nevropatolog, psixonevrolog mutaxassislariga olib borishi va ularning tavsiyalariga doimiy amal qilishi kerak. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda to'g'ri nutqiy nafasni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Nafas nozikroq bo'lgani uchun mashqlarni mutaxassis nazorati ostida bajarilishi kerak. Duduqlanish o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Bu kasallik qo'rquv va stress natijasida paydo bo'lishi mumkin. Umuman olganda, hamma qo'rqishi mumkin, ammo hammada ham duduqlanish kuzatilavermaydi. Bu immunitetning pastligi, nerv sistemasining noto'g'ri ishlashi natijasida kelib chiqadigan kasallik.

Har qanday holatda ota-onalar ham yosh bolalariga iloji boricha qo'rqinchli o'yinlarni o'ynash, filmlarni ko'rishga imkon bermasligi lozim. Bu duduqlanishning oldini olish uchun ular tomonidan tashlanadigan qadamlardan biri bo'lishi mumkin. Agar bolada duduqlanish kuzatilayotgan bo'lsa, logoped yoki psixonevrolog kabi mutaxassis-shifokorlarga murojaat qilish lozim. Davolash muolajalari qancha erta boshlansa, kichkintoy shuncha tez va asoratsiz shifo topadi.

Nutqni rivojlantirish va atrofdagi olam bilan tanishtirishga doir mashg'ulotlar.

Tasviriy faoliyat va qurishga doir mashg'ulotlar

Sentabr, oktabr, noyabr.

“Kuz”, “sabzavotlar”, “mevalar”, “daraxtlar” leksik mavzularida bolalar bilimlarini kengaytirish va aniqlashtirish.

Bolalarni predmetlarni, rasmlarni (mevalar, sabzavotlar, o'yinchoqlar tasviri bilan) toifalarga guruhlash va ularni umumlashtiruvchi so'zlar bilan nomlashga o'rgatish. Sabzavotlar va mevalar va ularning hosili, terib olinadigan yil fasllari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. (Kuzda sabzavot va mevalar pishadi, ularni dehqonlar yetishtiradi va terib oladi. Qushlar uzoq o'lkalarga uchib ketadilar, kunlar qisqa, tunlar uzoq bo'ladi. Ob-havo o'zgaradi: kunlar soviy boshlaydi, quyosh kamroq sitadi, yomg'irlar yog'adi. Barglar sarg'ayadi va to'kiladi.). Bundan tashqari duduqlanishni bartaraf etishda reloksatsiya mashqlaridan, harakatli va didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Bularning barchasi duduqlanishni bartaraf etishga, to'g'ri nutqni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda bunday nuqson asosan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining muvozanati buzilishlaridan kelib chiqadi. Oilada sog'lom nutqni tashkil qilish to'g'ri nutq shakllanishining asosiy omilidir. Shu bilan birgalikda bolada duduqlanish qanchalik erta aniqlanib, mutaxassisga murojaat qilinsa davolash shunchalik samarali bo'ladi. Bunda ota-onalar ham farzandini nazorat qilishi ko'p

o'qishga majburlamasligi, qo'rqitmasligi kerak. Ko'pgina kuzatuvlar natijasi shuki, bolalar ota-onalari bilan hech qanday qiyinchiliksiz muloqot qiladi. Buning sababi esa bolalar ota-onasini har kuni ko'radi va ularni yonida o'zlarini erkin tutadi, hayajon va qo'rquvlarsiz gapiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Ayupova.M.Y. —Logopediyal O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatinashriyoti Toshkent – 2007.
3. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasill Ma'ruza matni .T-2001
4. Raxmanova V.S — Korreksion pedagogika va logopediyaToshkent «Iqtisod-moliya» 2007